



UO'K: 821.512.157.0:378(479.24+575.1)"20"

**BAKIR CHO'PONZODA ADABIY MEROSINI O'RGANISHNING O'ZBEK VA OZARBAYJON XALQLARI UCHUN PEDAGOGIK AHAMIYATI****ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ ИЗУЧЕНИЯ ЛИТЕРАТУРНОГО НАСЛЕДИЯ БАКИРА ЧОПАНЗАДЕ ДЛЯ НАРОДОВ УЗБЕКИСТАНА И АЗЕРБАЙДЖАНА****THE PEDAGOGICAL SIGNIFICANCE OF STUDYING BAKIR CHOPONZODA'S LITERARY HERITAGE FOR THE PEOPLES OF UZBEKISTAN AND AZERBAIJAN****Sumbula Maxmudova** 

Farg'ona davlat universitetining

"Qatag'on qurbonlari" muzeyi katta ilmiy xodimi,  
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent**Annotatsiya**

Ushbu maqola O'zbekiston va Ozarbayjon xalqlarining "Bir Tarix, Bir Taqdir" shiori ostidagi mushtarak tarixi, madaniy aloqalari va zamonaviy strategik sherikligini tahlil qiladi. Materiallar Xaydar Aliyevning Ozarbayjon madaniyati sintezi haqidagi fikrlaridan kelib chiqib, ikki millatning qon, til va qalb rishtalari bilan bog'langanligini asoslaydi. Tadqiqot XX asr boshidagi ma'rifatparvarlik harakatlariga e'tibor qaratib, mashhur turkiyshunos olim Bakir Cho'ponzoda (1893-1937) faoliyati va fojiviy taqdiri misolida ikki xalq ziyolilarining o'sha davrdagi mushtarak qatag'on sinovlarini o'rganadi. Xususan, uning Farg'ona davlat universitetidagi ilmiy merosi (1930-1935) va o'zbek tili hamda adabiyoti kafedrasiga asos solishi tahlil qilinadi. Hozirgi davrdagi Prezident Shavkat Mirziyoyev va Prezident Ilhom Aliyevning siyosiy irodasi tufayli munosabatlarning strategik sheriklik darajasiga ko'tarilgani, iqtisodiy (Boku – Tbilisi – Qars temir yo'li) va madaniy (Toshkentdagi Haydar Aliyev Markazi va Bokudagi Alisher Navoiy haykali) aloqalarning kuchaygani ko'rsatib beriladi. Maqola, Bakir Cho'ponzoda kabi jadid olimlarning merosini o'rganish orqali bugungi kunda Turkiy davlatlar tashkiloti doirasidagi birlik va hamkorlikni mustahkamlashning muhimligini ta'kidlaydi.

**Аннотация**

В данной статье анализируется общая история, культурные связи и современное стратегическое партнёрство народов Узбекистана и Азербайджана под лозунгом «Одна история, одна судьба». Материалы статьи опираются на идеи Гейдара Алиева о синтезе азербайджанской культуры и обосновывают, что оба народа связаны узами крови, языка и духа. Исследование уделяет особое внимание просветительскому движению начала XX века, рассматривая деятельность и трагическую судьбу известного тюрколога Бакира Чопанзаде (1893–1937) как пример общих репрессий, пережитых интеллигенцией двух народов. В частности, анализируется его научное наследие в Ферганском государственном университете (1930–1935) и роль в основании кафедры узбекского языка и литературы. Отмечается, что благодаря политической воле Президента Шавката Мирзиёева и Президента Ильхама Алиева отношения между странами достигли уровня стратегического партнёрства. Подчеркивается укрепление экономических связей (железная дорога Баку – Тбилиси – Карс) и культурных отношений (Центр Гейдара Алиева в Ташкенте и памятник Алишеру Навои в Баку). Статья акцентирует внимание на важности изучения наследия джадидских учёных, таких как Бакир Чопанзаде, для укрепления единства и сотрудничества в рамках Организации тюркских государств и продвижения идей нового Ренессанса.

**Abstract**

This article analyzes the shared history, cultural ties, and modern strategic partnership of the peoples of Uzbekistan and Azerbaijan under the slogan "One History, One Destiny." The materials are based on Heydar Aliyev's ideas about the synthesis of Azerbaijani culture and substantiate that the two nations are bound by the ties of blood, language, and spirit. The study focuses on the educational and enlightenment movements of the early 20th century, examining the activities and tragic fate of the prominent Turkologist Bakir Choponzoda (1893–1937) as an example of the common repressive trials faced by the intellectuals of both nations. In particular, the article analyzes his scholarly legacy at Fergana State University (1930–1935) and his role in establishing the Department of Uzbek Language and Literature. It highlights that, thanks to the political will of President Shavkat Mirziyoyev and President Ilham Aliyev, the relations between the two countries have reached the level of strategic partnership. The strengthening of economic ties (the Baku–Tbilisi–Kars railway) and cultural cooperation (the Heydar Aliyev Center in Tashkent and the Alisher Navoi monument in Baku) is emphasized. The article concludes that studying the heritage of Jadid scholars like Bakir Choponzoda plays an important role in consolidating unity and cooperation within the Organization of Turkic States and promoting the ideals of a new Renaissance.

**Kalit so'zlar:** Ozarbayjon, O'zbekiston, Bakir Cho'ponzoda, turkiyshunoslik, jadidchilik, qatag'on, strategik sheriklik, turkiy davlatlar tag'shiloti, yangi renessans.

**Ключевые слова:** Азербайджан, Узбекистан, Бакир Чопанзаде, тюркология, джадидизм, репрессии, стратегическое партнёрство, Организация тюркских государств, новый Ренессанс.

**Keywords:** Azerbaijan, Uzbekistan, Bakir Choponzoda, Turkology, Jadidism, repression, strategic partnership, Organization of Turkic States, new Renaissance.

## KIRISH

Maqola mavzusining dolzarbligi: O'zbekiston va Ozarbayjon xalqlarining chuqur tarixiy, madaniy va til jihatdan mushtarak ildizlariga ega ekanligi, ularning nafaqat xaritada masofa, balki "qon, til va qalb rishtalari" bilan bog'langanligi dolzarblikni belgilaydi.

Haydar Aliyev ta'kidlaganidek, Sharq ildizlaridan ajralmagan holda G'arb sivilizatsiyasi sinteziga asoslangan noyob madaniyatni yaratgan Ozarbayjon madaniyati va qadimiyatining o'rganilishi xalqaro munosabatlar kontekstida muhim ahamiyat kasb etadi.

Maqolaning maqsadi XX asrning og'ir sinovlarida birga toblangan "bir tarix, bir taqdir" bo'lgan ikki buyuk millat munosabatlarini tahlil qilish va zamonaviy strategik sheriklikning tarixiy asoslarini ochib berishdir.

O'tmishdagi mushtarak fojiali sahifalarni, xususan, XX asr boshlaridagi qatag'on davridagi ziyolilar taqdiri va faoliyatidagi umumiyliklarni o'rganish, nasliy burch va tarixiy haqiqatni anglash sifatida maqolaning tadqiqot vazifasi etib belgilanadi.

### TADQIQOT METODLARI. TADQIQOTDA QUYIDAGI METODLARDAN FOYDALANILDI

Tarixiylik va mantiqiylik metodlari: Ikki xalq munosabatlaridagi tarixiy izchillik, ayniqsa, XX asr boshidagi ma'rifatparvarlik harakatlari va qatag'on davrini mantiqiy ketma-ketlikda tahlil qilish.

Qiyosiy-tahliliy metod: Bakir Cho'ponzoda faoliyati misolida Ozarbayjon va O'zbekiston ziyolilarining o'zaro aloqasi, jadidchilik g'oyalari va keyingi qatag'on jarayonlarini qiyoslash.

Siyosiy tahlil metodi: So'nggi yetti yildagi O'zbekiston va Ozarbayjon Prezidentlari (SH.Mirziyoyev va I.Aliyev) siyosiy irodasi tufayli munosabatlarning strategik sheriklik va ittifoqdoshlik darajasiga ko'tarilishini tahlil qilish.

Manbashunoslik: Bakir Cho'ponzodaning adabiy asarlari va madaniy va ilmiy merosini o'rganish.

-Tadqiqot obyekti: O'zbekiston-Ozarbayjon munosabatlarining tarixiy, madaniy va siyosiy aspektlari.

- Tadqiqot predmeti: Bakir Cho'ponzoda faoliyati va ikki davlatning zamonaviy strategik hamkorligi.

## NATIJALAR

Tadqiqot natijalari quyidagilarni ko'rsatdi: Ozarbayjon zamini Nizomiy Ganjaviy, Fuzuliy kabi buyuk so'z me'morlarini, Bakir Cho'ponzoda kabi ilm fidoyilarini tarbiyalab bergan. Turkiyshunos olim, shoir Bakir Cho'ponzoda Markaziy Osiyoda keng qanot yozgan ma'rifatchilik harakatining atoqli vakili bo'lgan va uning nomi Avloniy, Fitratlar qatorida qadrlidir. Uning Toshkentdagi faoliyati o'zbek jadidlarining maorif, til va adabiyot islohotlariga oid g'oyalari yaqin bo'lgan. Fojia Bakir Cho'ponzoda kabi eng yetuk turkologiya mutaxassislaridan birining qatag'on qilinishi 30-yillardagi Stalin qatag'onlarining turkiy xalqlar ziyolilariga qarshi qaratilgan to'liqining bir qismi sifatida ikki qardosh xalqning o'sha davrdagi mushtarak fojiasi bo'lgan. Farg'ona davlat universitetida o'zbek tili va adabiyoti kafedrasiga asos solishi uning butun turkiy dunyo ma'rifatparvarlari orasidagi o'zaro aloqa va hamkorlikning muhim ramzi hisoblanadi.

So'nggi yetti yil ikki qardosh xalq munosabatlarida haqiqiy Yangi Renessans davri bo'ldi. Munosabatlar strategik sheriklik va ittifoqdoshlik darajasiga ko'tarildi.

Savdo ko'lami kengayib, Boku – Tbilisi – Qars temir yo'li kabi yo'laklardan birgalikda foydalanish O'zbekiston va Ozarbayjonnin Yevrosiyoning muhim logistika xablariga aylantirishga xizmat qilmoqda.

Toshkentdagi Haydar Aliyev nomidagi Markaz va Bokudagi Alisher Navoiy haykali kabi madaniy ramzlar ruhiy rishtalarning boqiyiligini tasdiqlaydi.

## MUHOKAMA

Tadqiqot natijalari ikki xalqning tarixiy va madaniy birligi hamda siyosiy-iqtisodiy ittifoqdoshligi, bir-birini to'ldirishini ko'rsatdi. Bakir Cho'ponzoda faoliyati o'zbek va ozar

## PEDAGOGIKA

ziyolilarining g'oyaviy yaqinligi va mushtarak ma'rifiy maqsadlaridan dalolat beradi. Z.Bunyodovning qatag'on haqidagi xotiralari Cho'ponzoda kabi "yangi fikrli olimlar, mutafakkir va intellektlarni oradan ko'tarmak" maqsadi bo'lganini tasdiqlaydi va bu ikki xalq uchun umumiy tragediyani chuqurlashtiradi.

Turkiy davlatlar tashkiloti doirasida mintaqaviy tinchlik, xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlashda ikki davlatning yelkama-yelka turishi, ulug' ajdodlar orzu qilgan tinchlik, farovonlik va taraqqiyot davrini yakdillik, birlik bilan mustahkamlash davri kelganligini ko'rsatadi. Bu, aslida, tarixiy va madaniy birlikning amaliy siyosiy ifodasidir.

**XULOSA**

O'zbekiston va Ozarbayjonning munosabatlari "Bir tarix, bir taqdir" tamoyiliga asoslangan bo'lib, qadimiy madaniy meros va XX asr boshidagi ma'rifatparvarlik harakatlari, xususan, Bakir Cho'ponzodaning faoliyati bugungi strategik sheriklik uchun mustahkam poydevor bo'lgan. Prezidentlarning qat'iy siyosiy irodasi tufayli boshlangan "Yangi Renessans" davri ikki millatni Yevrosiyoning muhim logistika xablariga aylantirish va Turkiy davlatlar tashkilotida birlikni mustahkamlash kabi ulug'vor maqsadlar sari yetaklamoqda. Bakir Cho'ponzoda kabi jadid olimlar merosini chuqur o'rganish bugungi kundagi birlik qudratini anglash uchun muhimdir.

**ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Chobonzoda, B. (1928). T'yrk tili [Турк тили]. Боку: Озарбайжон Давлат Нашриёти.
2. Chobonzoda, B. (1929). T'yrk ədəbiyyatı və onun xüsusiyyətləri [Турк адабиёти ва унинг хусусиятлари]. Боку.
3. Chobonzoda, B. (1934). T'yrk tili metodikasi [Турк тили методикаси]. Фарғона.
4. Абдуллаев, В. (1965). Ўзбек мумтоз адабиёти поэтикаси тадқиқотлари. Тошкент: Фан.
5. Абдурахмонов, Ф. (1970). Ўзбек тили тарихи ва диалектологияси. Тошкент: Ўқитувчи.
6. Фитрат, А. (1927). Маориф ва мактаб ислохотлари ҳақида. Самарқанд.
7. Зиёев, Ҳ. (2000). Ўзбекистон ва Озарбайжон халқларининг тарихий-маданий алоқалари. Тошкент.